



QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



QASHQADARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.


Jumladan, 2023- yil 1- dekabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 34 415 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 29 334 ta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar 83,7 foizni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar 81,6 foiz) tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar

fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda.

Faoliyat ko‘rsatayotgan


Ro‘yxatdan o‘tgan




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2023- yil yanvar-noyabr holatiga ko‘ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi




Savdo




Axborot va aloqa



Sanoat




Tashish va saqlash

Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2023- yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2018- yilning mos davri bilan solishtirilganda 2 164 taga ko‘payganligini ko‘rish mumkin.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2018- yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar 2 194 taga, oilaviy korxonalar 663 taga ko‘paygan.

Hududlar kesimida


Qarshi shahri	931	14,1 %	Nishon	346	20,1 %
Qarshi	481	19,8 %	Qamashi	296	13,4 %
Koson	458	17,6 %	Mirishkor	261	17,5 %
Yakkabog‘	451	18,3 %	Shahrisabz shahri	260	13,6 %
Kitob	371	15,6 %	Dehqonobod	254	17,0 %
Kasbi	362	21,8 %	Chiroqchi	250	14,0 %
Shahrisabz	357	20,2 %	Ko‘kdala	234	22,8 %
G‘uzor	351	20,2 %	Muborak	184	16,1 %

2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar


2023- yil 1- dekabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 34 415 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida


Qarshi shahri	6 605	Shahrisabz	1 768
Koson	2 597	G'uzor	1 737
Yakkabog'	2 458	Nishon	1 724
Qarshi	2 426	Kasbi	1 659
Kitob	2 383	Mirishkor	1 495
Qamashi	2 204	Dehqonobod	1 492
Shahrisabz shahri	1 908	Muborak	1 142
Chiroqchi	1 791	Ko'kdala	1 026

2023- yil yanvar- noyabr holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2023-yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 5 654 ta bo'lib, shundan:


- mikrofirmalar va kichik korxonalar 5 636 ta;
- yirik korxonalar 18 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida


Qarshi shahri	888	15,5 %	Nishon	329	21,9 %
Qarshi	464	21,8 %	Qamashi	282	14,9 %
Koson	453	20,1 %	Mirishkor	258	20,1 %
Yakkabog'	436	20,5 %	Dehqonobod	251	20,1 %
Kitob	359	17,6 %	Shahrisabz shahri	248	14,9 %
Kasbi	359	24,9 %	Chiroqchi	241	16,3 %
Shahrisabz	347	23,5 %	Ko'kdala	220	27,2 %
G'uzor	340	22,9 %	Muborak	179	18,3 %

2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023- yil 1- dekabr holatiga 29 500 taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 145,1 foizni tashkil etdi (20 337 ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 36,0 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 19,6 foiz, sanoat – 13,5 foiz, qurilish – 9,0 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 5,7 foiz, tashish va saqlash – 3,3 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,3 foiz, axborot va aloqa – 1,4 foiz, boshqa turlari – 9,3 foiz.

Hududlar kesimida


Qarshi shahri	5 711	G'uzor	1 483
Koson	2 252	Chiroqchi	1 477
Qarshi	2 125	Shahrisabz	1 474
Yakkabog'	2 123	Kasbi	1 442
Kitob	2 036	Mirishkor	1 281
Qamashi	1 898	Dehqonobod	1 247
Shahrisabz shahri	1 662	Muborak	977
Nishon	1 504	Ko'kdala	808

2023- yil yanvar-noyabr holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.


Shunda, 2023- yil yanvar- noyabr oylarida tashish va saqlash sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 167 tadan 227 taga (o'sish 60 taga), axborot va aloqa – 85 tadan 100 taga (o'sish 15 taga), qurilish 264 tadan 271 taga (o'sish 7 taga) ko'paydi.

Hududlar kesimida


Qarshi shahri	881	15,6 %	Nishon	329	21,9 %
Qarshi	463	21,9 %	Qamashi	282	14,9 %
Koson	453	20,2 %	Mirishkor	258	20,2 %
Yakkabog'	432	20,4 %	Dehqonobod	251	20,2 %
Kasbi	359	25,0 %	Shahrisabz shahri	247	14,9 %
Kitob	357	17,6 %	Chiroqchi	240	16,3 %
Shahrisabz	347	23,6 %	Ko'kdala	220	27,3 %
G'uzor	339	23,0 %	Muborak	178	18,5 %

2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Hududlar kesimida eng ko'p kichik biznes subyektlari Qarshi shahrida (19,3 foiz), Koson (7,6 foiz), Yakkabog' (7,2 foiz), Qarshi (7,2 foiz) va Kitob (6,9 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 70 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Hududlar kesimida

Qarshi shahri	5 647	G'uzor	1 472
Koson	2 239	Chiroqchi	1 472
Yakkabog'	2 116	Shahrisabz	1 469
Qarshi	2 112	Kasbi	1 438
Kitob	2 032	Mirishkor	1 278
Qamashi	1 894	Dehqonobod	1 241
Shahrisabz shahri	1 656	Muborak	962
Nishon	1 499	Ko'kdala	807

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar
2023- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda


Hududlar kesimida

Qamashi	756
Nishon	616
Koson	582
Mirishkor	488
Kasbi	447
Yakkabog‘	430
Dehqonobod	411
Kitob	387
Shahrisabz	382
Qarshi	359
Ko‘kdala	195
Chiroqchi	183
G‘uzor	177
Muborak	176
Qarshi shahri	172
Shahrisabz shahri	50



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.



Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish


O‘rmonchilik va yog‘och tayyorlash

Baliq ovlash va akvakultura

2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda


Hududlar kesimida

Qarshi shahri	715
Kitob	443
Yakkabog'	370
Shahrisabz shahri	307
G'uzor	294
Qarshi	282
Shahrisabz	257
Qamashi	215
Chiroqchi	200
Koson	195
Kasbi	168
Mirishkor	138
Nishon	106
Muborak	105
Dehqonobod	101
Ko'kdala	94



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. 2019- yilning mos davrida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini sonining o'sish sur'ati 118,0 foizni tashkil etdi.


Sanoat korxonalarini soni jami korxonalar va tashkilotlarning 11,6 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 91,0 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 71,3 foiz), 6,9 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish 89,9 foiz), 1,3 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish (o'sish 67,6 foiz) va 0,8 foizini elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish 109,4 foiz) tashkil etgan.



2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Qarshi shahri	740
Qarshi	301
Koson	276
Yakkabog'	165
Shahrisabz shahri	124
Chiroqchi	122
Kasbi	120
Muborak	116
Kitob	113
Qamashi	106
Shahrisabz	101
Dehqonobod	90
G'uzor	88
Mirishkor	83
Nishon	82
Ko'kdala	37



Mamlakatimizda qurilish sohasida iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:


- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 62,0 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 71,5 foizni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 16,7 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 121,9 foizni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 21,3 foiz ulushni va 73,4 foizni tashkil etdi.



2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Qarshi shahri	2205
Koson	859
Qarshi	775
Yakkabog'	706
Chiroqchi	677
Shahrisabz shahri	666
Kitob	612
G'uzor	590
Qamashi	554
Kasbi	511
Nishon	465
Dehqonobod	458
Mirishkor	408
Shahrisabz	405
Muborak	401
Ko'kdala	366



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 10 592 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 70,5 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 85,2 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 21,5 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 95,9 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 8,0 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 86,4 foizni tashkil etdi.

847

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

2 283

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


7 498

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Qarshi shahri	416
Kitob	176
Shahrisabz	171
Yakkabog'	152
Shahrisabz shahri	150
G'uzor	91
Qarshi	90
Chiroqchi	83
Qamashi	71
Koson	55
Dehqonobod	49
Nishon	47
Ko'kdala	39
Muborak	31
Kasbi	30
Mirishkor	26



2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2019- yilning mos davriga nisbatan 147,5 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1-dekabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 10,5 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 89,5 foiz ulushini tashkil etdi.

176

Yashash bo'yicha
xizmatlar


1 501

Oziq- ovqat va
ichimliklar yetkazish
bo'yicha xizmatlar

2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Qarshi shahri	150
Chiroqchi	51
Qarshi	35
Shahrisabz shahri	29
G'uzor	26
Kitob	24
Yakkabog'	17
Koson	17
Kasbi	17
Qamashi	10
Ko'kdala	10
Mirishkor	10
Nishon	7
Shahrisabz	5
Muborak	5
Dehqonobod	4



2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 22,5 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 90,4 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 34,3 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 85,1 foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 43,2 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 86,1 foizni tashkil etdi.



2023- yil 1- dekabr holatiga koʻra, birlikda

Hududlar kesimida

Qarshi shahri	249
Shahrisabz shahri	84
Yakkabogʻ	76
Kitob	64
Koson	53
Qarshi	50
Qamashi	42
Shahrisabz	38
Chiroqchi	31
Gʻuzor	30
Nishon	23
Kasbi	21
Mirishkor	20
Muborak	16
Dehqonobod	10
Koʻkdala	9



Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 680 ta yoki 83,3 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga toʻgʻri kelgan.

Yoʻnalishlar boʻyicha tahlil shuni koʻrsatdiki:

95,7 foiz korxonalar sogʻliqni saqlash yoʻnalishiga toʻgʻri kelib, oʻsish surʼati 2022- yilning mos davriga nisbatan 96,9 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan taʼminlangan holda parvarishlash yoʻnalishidagi korxonalar soni 2,3 foizni tashkil etib, oʻsish surʼati 73,1 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan taʼminlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish yoʻnalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 2,0 foizini tashkil etib, oʻsish surʼati 88,9 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan taʼminlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish

16



Yashash uchun joy bilan taʼminlangan holda parvarishlash

19




Sogʻliqni saqlash sohasidagi faoliyat

781

2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Qarshi shahri	342
Koson	81
Qarshi	78
Shahrisabz shahri	61
Yakkabog'	58
G'uzor	56
Kitob	54
Shahrisabz	48
Mirishkor	48
Kasbi	43
Qamashi	21
Chiroqchi	21
Nishon	17
Dehqonobod	15
Muborak	14
Ko'kdala	14



2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 2,8 foiz ulushini tashkil etdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati 92,0 foizni tashkil etdi;

ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati 91,4 foizni;

pochta va kuryerlik yo'nalishi 93,2 foizni tashkil etdi;

havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 1 ta;


suv transporti yo'nalishidagi korxonalar soni 1 tani tashkil etadi.



**Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy
shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot**
2023- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda

**Tadbirkorlik
subyektlari soni**

**Tadbirkorlik subyektlarining
jamiga nisbatan ulushi**




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:


- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

2023- yil yanvar-noyabr holatiga ko'ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo




Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Hududlar kesimida

Qarshi shahri	649	G'uzor	175
Yakkabog'	381	Chiroqchi	170
Koson	348	Muborak	141
Kasbi	304	Ko'kdala	127
Qarshi	258	Shahrisabz shahri	104
Nishon	253	Kitob	90
Mirishkor	229	Shahrisabz	75
Qamashi	207	Dehqonobod	26


2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 29 500 ta tijorat korxonasi va tashkilotlarining 16 913 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich savdoda – 33,8 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 23,1 foiz, qurilish – 11,3 foiz, sanoat – 11,1 foizni tashkil etdi.


Hududlar kesimida

Qarshi shahri	3818	Chiroqchi	877
Koson	1633	Kitob	692
Yakkabog'	1429	G'uzor	662
Qamashi	1290	Shahrisabz shahri	661
Qarshi	1087	Muborak	648
Kasbi	1039	Shahrisabz	521
Mirishkor	967	Ko'kdala	400
Nishon	958	Dehqonobod	231


2023- yil yanvar-noyabr holatiga ko'ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

2023- yil yanvar-noyabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 37 taga, tashish va saqlashda 10 taga ko'paygan.


Hududlar kesimida

Kitob	247	Yakkabog'	38
Dehqonobod	214	G'uzor	30
Qarshi shahri	160	Muborak	30
Shahrisabz	133	Qamashi	26
Shahrisabz shahri	122	Mirishkor	23
Qarshi	81	Ko'kdala	23
Kasbi	48	Chiroqchi	22
Nishon	40	Koson	18

2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 76,5 foizni tashkil etdi.


Hududlar kesimida

Qarshi shahri	1286	Qamashi	386
Kitob	1047	Chiroqchi	357
Dehqonobod	862	Kasbi	348
Shahrisabz shahri	754	Koson	340
Yakkabog'	560	G'uzor	257
Qarshi	551	Muborak	206
Shahrisabz	462	Mirishkor	181
Nishon	415	Ko'kdala	159


2023- yil yanvar-noyabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo





Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Oilaviy korxonalar – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyekti. Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


Hududlar kesimida

Shahrisabz	139	Nishon	36
G'uzor	134	Kitob	22
Qarshi	120	Shahrisabz shahri	22
Koson	84	Yakkabog'	17
Qarshi shahri	77	Dehqonobod	11
Ko'kdala	70	Muborak	8
Qamashi	45	Mirishkor	4
Chiroqchi	44	Kasbi	2


2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra 3 888 etdi.

Hududlar kesimida


G'uzor	543	Chiroqchi	221
Qarshi shahri	517	Qamashi	170
Shahrisabz	468	Nishon	118
Qarshi	441	Yakkabog'	115
Kitob	277	Mirishkor	105
Ko'kdala	238	Muborak	101
Koson	232	Dehqonobod	83
Shahrisabz shahri	229	Kasbi	30

Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumot

2023- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o‘shish sur‘ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Savdo



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish




Boshqa turlar

Yetakchi o‘rinni 27 ta korxonada to‘liq yoki qisman ulushi mavjud bo‘lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu viloyatda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 16,1 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiyotiga o‘z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 14,9 foiz), Afg‘oniston (ulushi 11,3 foiz), Turkiya Respublikasi (ulushi 8,9 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 5,4 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida

Qarshi shahri	40	Mirishkor	7
Muborak	18	Nishon	7
Dehqonobod	14	Chiroqchi	7
Kitob	13	Qamashi	6
Qarshi	11	Kasbi	6
Koson	11	Shahrisabz shahri	5
G‘uzor	8	Shahrisabz	4
Yakkabog‘	8	Ko‘kdala	3

2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 105 tasi qo'shma korxonalar, 63 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda

qo'shma korxonalar		xorijiy korxonalar
6	G'uzor	2
9	Dehqonobod	5
4	Qamashi	2
7	Qarshi	4
6	Koson	5
8	Kitob	5
4	Mirishkor	3
6	Muborak	12
5	Nishon	2
1	Kasbi	5
1	Ko'kdala	2
6	Chiroqchi	1
1	Shahrisabz	3
6	Yakkabog'	2
32	Qarshi sh.	8
3	Shahrisabz sh.	2

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- noyabrdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz va Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining www.qashstat.uz rasmiy saytlarida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



**Statistik registrlarni
yuritish boʻlimi**
Tel.:(75) 221-17-93